

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD 26/26.01.2023.T.109.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**MULLODJANOVA GULNOZA MUXIDDINOVNA**

**GEOINNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YER YUZASIDAGI  
DEFORMATSION O‘ZGARISHLARNI MONITORING QILISH  
USULINI TAKOMILLASHTIRISH  
(Buxoro viloyati Qandim gaz koni misolida)**

**11.00.07 – Geoinformatika**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Mullodjanova Gulnoza Muxiddinovna**

Geoinnovatsion texnologiyalar asosida yer yuzasidagi deformatsion o‘zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish (*Buxoro viloyati Qandim gaz koni misolida*).....3

**Муллоджанова Гулноза Мухиддиновна**

Совершенствование метода мониторинга деформационных изменений земной поверхности на основе геоинновационных технологий (*на примере газового месторождения Кандым в Бухарской области*) ..... 21

**Mullodjanova Gulnoza Muxiddinovna**

Improving the method of monitoring surface deformation based on Geoinnovative technologies (a case study of the Kandym gas field in Bukhara region)..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD 26/26.01.2023.T.109.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**MULLODJANOVA GULNOZA MUXIDDINOVNA**

**GEOINNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YER YUZASIDAGI  
DEFORMATSION O‘ZGARISHLARNI MONITORING QILISH  
USULINI TAKOMILLASHTIRISH  
(Buxoro viloyati Qandim gaz koni misolida)**

**11.00.07 – Geoinformatika**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4PhDT5191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) universitet Ilmiy kengashining veb sahifasi ([www.samdaqu.uz](http://www.samdaqu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Suyunov Abdusali Samatovich</b> texnika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Reyimov Polat Rasbergenovich</b> geografiya fanlari doktori (DSc), professor <b>Mamatqulov Zoxid Jonqobilovich</b> texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat texnika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura- qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 26/26.01.2023.T.109.04 Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning «24» oktabr 2025-yil soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70. Tel. (998-66) 237-15-93, Fax (99866) 237-26-30. E-mail: samdaqu@edu.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi, 70. Tel. (998-66) 237-06-06.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil, "10" "10" kuni tarqatildi.  
(2025-yil "10" "10" dagi 03 raqamli reyestr bayonnomasi).



**D.Sh. Fazilova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash rais o'rinbosari, f.m.f.d., professor

**V.R. Niyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**S.B. Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
g.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda va uning turli mintaqalarida texnogen hamda tabiiy jarayonlarning yer yuzasiga ko'rsatadigan sezilarli ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan deformatsion jarayonlarni masofadan zondlash hamda geoaxborot tizimlari texnologiyalari asosida tahlil qilish va o'rganish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni monitoring qilishni avtomatlashtirish, inson aralashuvini minimallashtirish va innovatsion yechimlardan keng foydalanish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada 2015–2030-yillarga mo'ljallangan ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha Sendai doirasidagi harakatlar dasturida (Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015–2030)<sup>1</sup> masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish ofatlar oqibatlarini baholash va ularni boshqarishda ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni doimiy monitoring qilish, geoinformatsion usullar orqali ularni aniqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi samarali kuzatuv tizimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda masofadan zondlash ma'lumotlarini geoaxborot tizimlari (GAT) bilan integratsiya qilish asosida yer yuzasidagi geodinamik jarayonlarni monitoring qilish usullarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Gaz konlarida geodezik va geoaxborot monitoringi orqali deformatsion jarayonlarni aniqlash, raqamli modellarni yaratish hamda geoinnovatsion texnologiyalar asosida kartografik ma'lumotlar tayyorlash ustuvor masala sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, InSAR – (Interferometric Synthetic Aperture Radar) texnologiyasi asosida yaratilgan raqamli relyef modeli (RRM, DEM) aniqligini baholash orqali yer yuzasidagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda tasdiqlangan farmon va qarorlarda iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida konlarda seysmogeodinamik jarayonlarni monitoring qilishni rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, geoinnovatsion texnologiyalar asosida yer yuzasidagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «.....sun'iy yo'ldosh texnologiyasi orqali masofadan zondlab aniqlash va ta'mirlashga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish»<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, gaz konlarida geoinnovatsion texnologiyalar asosida yer yuzasidagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilishda masofadan zondlash va geoaxborot tizimi texnologiyalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, yer yuzasini monitoring qilish texnogen va tabiiy ta'sirlarga duch keladigan hududlarni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>1</sup> [https://www.preventionweb.net/files/43291\\_sendaiframeworkfordrren.pdf](https://www.preventionweb.net/files/43291_sendaiframeworkfordrren.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-maydagi 127-sonli “Qandim gazni qayta ishlash zavodi tashqi infrastruktura obyektlari qurilishini tashkil qilish to‘g‘risida”gi Qarori va 2020-yil 25-noyabrda 746-sonli “Neft va gaz konlarini o‘zlashtirishning seysmogeodinamik jarayonlarga ta‘sirini monitoring qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” hamda VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mazkur soha bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gaz konlarining geodinamik poligonlarida yer yuzasidagi o‘zgarishlarni monitoring qilish bo‘yicha tadqiqotlar nafaqat xorijiy mamlakatlar va MDH davlatlari olimlari, balki respublikamiz olimlari tomonidan ham amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda geodezik, masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalari qo‘llanilgan.

Yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni monitoring qilish hamda geodinamik monitoring texnologiyalarining nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish masalalari bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, M. Bouaziz, Y. Bendorff, M. Blanche, N. Zhuskar, P. Ganie, R. Posti, K. Kunal, Sh. Yan, Zh. Chenning, T. Webster, M. Pritchard, Z. Yang, Z. Zhang, A. Dairu, N. Jusca, Sh. Yan, Zh. Chen, G. Dias va boshqa olimlar tomonidan mazkur yo‘nalishda muhim natijalarga erishilgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari orasida esa A.A. Abetov, Yu.O. Kuzmin, G.I. Griva, A.V. Brushko, V.P. Melnikov, V.V. Samsonova, A.V. Deshcherevskiy, E.A. Fattaxova, D.K. Kuzmina, A.A. Kazakov, D.V. Aman, A.V. Zemtsova, N.N. Melnikov, A.I. Kalashnik, I.V. Bychkova, V.N. Oparin, V.P. Potapov, A.A. Panzhin, N.A. Panzhina, S.S. Qudayberganova, K.N. Akatov va boshqalarning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy taklif va tavsiyalari zamonaviy amaliyotda qo‘llanilmoqda.

Respublikamiz olimlari E.R. Mirmakhmudov, D.Sh. Fazilova, A.S. Suyunov, O.Z. Arabov, V.R. Niyazov va boshqalar global navigatsion sun‘iy yo‘ldosh tizimi (GNSS) ma‘lumotlariga asoslangan geodezik monitoring masalalari hamda fazoviy ma‘lumotlarni geomodellashtirish muammolari bilan shug‘ullanib, ijobiy natijalarga erishganlar.

Bugungi kunda, mamlakatimizning turli hududlarida masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalari asosida yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni monitoring qilish va tahlil qilish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, gaz konlarining geodinamik poligonlarida monitoring usullarini takomillashtirish,

deformatsion o'zgarishlarning raqamli modelini yaratish, InSAR texnologiyasi asosida yer yuzasi deformatsiyasini aniqlash uchun DEM modelining aniqligini baholash hamda topografik-geodezik usullarni geoinformatsion texnologiyalar bilan integratsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, geofazoviy texnologiyalarni qo'llash uslubiyatini takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasining "Geoinnovatsion texnologiyalar asosida yer yuzasidagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish (Buxoro viloyati Qandim gaz koni misolida" mavzusidagi loyihasi (2023-2025 yy), Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining Yevropa ittifoqi tomonidan e'lon qilingan Erasmus+ 585718+YeRR-1-2017-1-HUEPPKA2-CBHE-JP «DSinGis: Geoinformatika sohasida doktorantura» xalqaro loyihasi (15.10.2017y.-14.10.2020y) ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** geoaxborot tizimi va masofadan zondlash texnologiyalari asosida gaz konlarining geodinamik poligonlari yer yuzasida deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

geodezik, masofadan zondlash va GAT texnologiyalarining integratsiyasi asosida neft va gaz konlaridagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish;

zamonaviy texnologiya va masofadan zondlash ma'lumotlari asosida fazoviy o'zgarishlar inobatga olinib tadqiqot obyektidagi deformatsiyalarni aniqlash metodikasini takomillashtirish;

yer yuzasida kuzatilayotgan deformatsiyani aniqlashda InSAR texnologiyasidan foydalanib yaratilgan relyefning raqamli modellarining (DEM)larning aniqligini baholash usulini takomillashtirish;

davriy Sentinel-1 SAR tasvirlaridan yaratilgan relyefning raqamli modellarining (DEM)larni ArcGIS dasturiga integratsiya qilish orqali tadqiqot obyektidagi yer yuzasida uchrayotgan deformatsion jarayonlarni vizual kuzatish va tahlil qilish uchun elektron kartani yaratish.

**Tadqiqot obyekti** Buxoro viloyatidagi Qandim gaz koni hududi hisoblanadi.

**Tadqiqot predmetini** InSAR ma'lumotlari asosida GAT tahlili va gaz konida geodezik monitoring bilan uyg'unlashtirgan holda yer yuzasining deformatsiya maydonlarini modellashtirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida masofadan zondlash (Sentinel-1 SAR) ma'lumotlari va topografiko-geodezik o'lchashlar; GAT texnologiyalari va geovizuallashtirish vositalari; SAR interferometriyasi (InSAR); geoma'lumotlar va solishtirma tahlil; korrelyatsion tahlil; o'rtacha kvadrat xato (RMSE) orqali aniqlikni baholash; geodinamik modellashtirish; deformatsion kartalar yaratish kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

geodezik, masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalari asosida neft va gaz konlaridagi deformatsion o'zgarishlarini monitoring qilish usuli takomillashtirilgan;

Interferometric Synthetic Aperture Radar (InSAR) texnologiyasi hamda Sentinel Application Platform (SNAP) dasturi yordamida vertikal o'zgarishlar inobatga olinib gaz konlari hududidagi deformatsiyalarni aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan;

yer yuzasida kuzatilayotgan deformatsiyani aniqlashda InSAR usulidan foydalanib yaratilgan relyefning raqamli modellari aniqligini baholash usuli takomillashtirilgan;

Qandim konidagi deformatsion jarayonlarni ilmiy asosda kartalashtirish uchun masofadan zondlash ma'lumotlari va SNAP dasturida hisoblangan relyefning raqamli modellarini ArcGIS muhitiga integratsiya qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot obyekti Qandim gaz koni yer yuzasidagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish usuli geodezik tahlil, masofadan zondlash va GAT texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

Qandim gaz koni hududidagi deformatsiya zamonaviy texnologiya va dasturlar yordamida fazoviy o'zgarishlar inobatga olingan holda aniqlangan;

deformatsiyani aniqlashda hamda baholashda masofadan zondlash usullaridan foydalangan holda obyekt relyefning raqamli modeli (DEM) yaratilgan;

ArcGIS muhitida Sentinel-1 SAR ma'lumotlari asosida yaratilgan DEMlar integratsiya qilish orqali Qandim gaz koni hududining yer yuzasi deformatsion kartasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi va uning huzuridagi Respublika aerogeodeziya markazining Xorazm hududlararo bo'limasi, Qandim gazni qayta ishlash majmuasining ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan uslub va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy mohiyati geodezik va geoinformatsion texnologiyalar negizida gaz konlarining geodinamik monitoring qilishning informatsion ta'minoti imkoniyatlarini kengayganligi bilan baholanadi.

Geoinnovatsion texnologiyalar asosida neft va gaz konlarida deformatsion jarayonlarni monitoring qilish usullari takomillashtirildi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish orqali uzluksiz va davriy geodezik kuzatishlarni takomillashtirish yo'nalishlari taklif etildi, ular matematik qayta ishlash, o'lchashlarni taqqoslash va tahlil qilish jarayonlari o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda korxonalar uchun amaliy tavsiyalarni tayyorlash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Geoinnovatsion texnologiyalar asosida yer yuzasidagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

-geodezik, masofadan zondlash va GAT texnologiyalari asosida neft va gaz konlaridagi deformatsion o'zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish bo'yicha takliflar Respublika aerogeodeziya markazining Xorazm hududlararo bo'linmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 05/527-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, neft va gaz konlaridagi deformatsiyalarni aniqlash natijalaridagi dispersiyani kamaytirishga, qayta ishlangan experiment natijalaridagi ishonchlilikni oshirish hamda shunga mutanosib ravishda noaniqlikni kamaytirishga erishilgan;

-tadqiqot maydonida kuzatilgan deformatsiyani aniqlashda InSAR texnologiyasidan foydalanib yaratilgan DEMlarning aniqligini baholash usuli takomillashtirilishi Respublika aerogeodeziya markazining Xorazm hududlararo bo'linmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 05/527-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash orqali deformatsiyalarni monitoring qilish va ilmiy jihatdan tahlil qilishda sezilarli afzalliklarga erishilgan. Bu esa, murakkab va bajarish qiyin bo'lgan Respublikamiz hududlarida aniqlash samaradorligi jiddiy oshirilishiga erishilgan;

-masofadan zondlash ma'lumotlari va SNAP dasturida olingan DEM modelini ArcGIS dasturiga integratsiya qilish asosida Qandim gaz koni hududining yer sirtida uchrayotgan deformatsion jarayonlar xaritasi ishlab chiqilgan. Natijada, zondlash ma'lumotlari va GAT texnologiyalarining integratsiyasi deformatsiyalarning yuqori aniqlikdagi xaritasi Respublika aerogeodeziya markazining Xorazm hududlararo bo'linmasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 05/527-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, zondlash ma'lumotlari va GAT texnologiyalarining integratsiyasi deformatsiyalarning yuqori aniqlikdagi xaritasini yaratish imkonini bergan. Bu esa neft va gaz konlarida geodinamik jarayonlarni vizual monitoring qilish va prognozlash samaradorligini 8-10% ga oshirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 7 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarida, jumladan 6 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyatlari keng ochib berilib, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gaz konlari hududida yer yuzasidagi deformatsion o‘zgarishlarni monitoring qilishning ilmiy va nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida gaz konlari hududida yer yuzasida kechadigan o‘zgarishlarni monitoring qilishning nazariy va amaliy ahamiyati, yer yuzasidagi deformatsion o‘zgarishlarni kuzatishda xalqaro tajribalar tahlil qilinib, kon hududlarida geodezik usullardan foydalanishning samaradorligi ilmiy asoslangan. Shuningdek, geodezik usullarning deformatsion jarayonlarni aniqlash va baholashdagi o‘rni hamda amaliy qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va olib borilgan tadqiqotlar natijasida neft va gaz qazib olish geodinamik buzilishlar xavfi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Ilmiy adabiyotlarda Gazli (O‘zbekiston) va Neftogorsk (Saxalin)da sodir bo‘lgan zilzilalarning konlarni ekspluatatsiya qilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi haqida fikrlar ilgari surilgan.


80 dan ortiq ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida, yuqori aniqlikdagi nivelirlash, GNSS, InSAR, LIDAR va gravimetrik kuzatuvlar deformatsion jarayonlarni aniqlashda samarali natija berishi aniqlangan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda ko‘proq instrumental nazoratga urg‘u berilib, fazoviy-vaqt tahlili va kompleks yondashuv yetarli darajada qo‘llanilmagan. Shu sababli, kon hududlarida ko‘p komponentli, integratsiyalashgan va raqamli modellashtirishga asoslangan monitoring tizimlari dolzarb yechim sifatida asoslab berilgan.

Shuningdek, geodezik usullar yuqori aniqlik ta’minlashini ko‘rsatadi: I va II sinf nivelirlashda  $\pm 2-3$  mm, GNSS texnologiyalarida esa RTK rejimida 3–5sm gacha. Shu bilan birga, nivelirlash katta vaqt va mehnat talab etishi (1 km uchun 4–6 soat), GNSS esa signal sifati, geoid modeli aniqligi va koordinatalarni transformatsiya qilish bilan bog‘liq cheklovlarga ega ekani ham ta’kidlangan.

Dissertatsiyaning **“Geoinformatsion va geodezik usullar asosida Qandim gaz koni hududidagi yer yuzasidagi o‘zgarishlarni aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobi Qandim gaz koni hududining tabiiy-geografik xususiyatlari tadqiq qilish, neft va gaz konlarida geodezik punktlarni joylashtirish hamda ulardan foydalanishda zamonaviy usul va texnologiyalarni qo‘llash, kon hududida mavjud geodezik punktlar holatini zamonaviy o‘lchash vositalari yordamida kuzatish, masofadan zondlash texnologiyalari asosida yer yuzasida kechayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va monitoring qilishning ilmiy-amaliy ahamiyati kabi masalalarga asoslangan.

Qandim gaz koni O‘zbekistonning Respublikasi Buxoro viloyati Qorako‘l tumaning Janubiy - G‘arbiy qismida joylashgan. Qandim gaz koni 1980 yilda

ochilgan bo‘lib, ushbu kon Buxoro-Xiva neft - gaz mintaqasiga tegishlidir. Qandim koni Qandim-Xauzak-Shodi neft loyihasining bir qismi hisoblanadi. Gazni qayta ishlash majmuasi qurilishi 2016-yil 19-aprelda boshlanib, 2018-yil 19-aprel kuni Qandim konlar guruhining gazni qayta ishlash majmuasi rasman ishga tushirildi.



**1-rasm. Qandim gaz koning joylashuv kartasi**


Gidrogeologik jihatdan birinchi suv qatlami quyi antropogen-pliosen qumlari va qumtoshlari bilan chegaralangan. Relyefi va litologik farqiga qarab 2,5 -7,0 dan 10 m gacha chuqurlikda joylashgan bo‘lib, sifati achchiq sho‘r hisoblanadi.

O‘simliklari-juda ham jonsiz bo‘lib, shuningdek yoz davomida butunlay yonib ketadigan o‘tsimon shaklda bo‘ladi.

Tadqiqot davomida geodinamik faollikni baholash uchun geodezik va masofadan zondlash (GNSS, yuqori aniqlikdagi nivelirlash, masofadan zondlash texnologiyalari) usullarini kompleks qo‘llash zarurligi asoslandi. Tadqiqot maydonida rekognosirovka va nivelirlash ishlari olib borildi, mavjud geodezik tarmoqning tayanch punktlari aniqlanib, ularning texnik holati tahlil qilindi. Geodinamik poligonda GNSSning statik usulida geodezik o‘lchashlar bajarildi, reperlarning koordinatalari xalqaro WGS-84 tizimida aniqlandi, bu esa geodinamik jarayonlarni keyingi monitoringi uchun mezonlarni shakllantirishga imkon berdi.

Reperlarning tenglashtirilgan koordinatalari 2010, 2015, 2020 yillarda bajarilgan “Qandim konida yer yuzasining harakatini kuzatish loyihasini amalga oshirish - geodinamik monitoring” obyektining reperlari koordinatalarini “Trimble business center” dasturida tuzildi va natijalar olindi .

Keyingi bosqichda geodinamik kuzatuvlar jarayonida 2015-2020-yillar davriga oid ma’lumotlar asosida reperlar balandliklaridagi o‘zgarishlar tahlil qilindi.




**2-rasm. Qandim gaz koni reperlarning vertikal siljishi natijasi 2010-2020 yillar grafigi**

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2010–2015 yillar davrida ayrim reperlarda yer yuzasining cho'kishi qayd etilgan bo'lsa, 2015–2020 yillarda ularning ko'tarilishi kuzatilgan. Xususan, Rp10 va Rp11 punktlarida vertikal ko'tarilish 30–35 mm gacha bo'lgan, boshqa bir qator punktlarda esa cho'kishlar aniqlangan (2-rasm). Olingan natijalar tadqiqot maydonida geodinamik jarayonlarning notekis rivojlanishini hamda deformatsion hodisalarining fazoviy va vaqtinchalik o'zgaruvchanligini tasdiqlashi isbotlandi.

Olib borilgan kompleks tadqiqotlar asosida yer yuzasidagi geodinamik jarayonlarni aniqlash va monitoring qilishning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqildi. Mazkur usul geodezik o'lchashlar, masofadan zondlash texnologiyalari va GAT integratsiyasiga asoslangan. Geodezik o'lchashlar (GNSS, yuqori aniqlikdagi nivelirlash va taxeometrik s'yomkalar) lokal masshtabda yuqori aniqlik bilan balandlik va koordinata aniqlash imkonini beradi. Masofadan zondlash usuli, xususan InSAR texnologiyasi, keng hududlarni muntazam kuzatish va deformatsion jarayonlarni davriy qayd etish imkoniyatini yaratadi. GAT (ArcGIS) turli manbalardan olingan ma'lumotlarni integratsiyalash, ularni raqamli modellashtirish, fazoviy-vaqt tahlilini amalga oshirish hamda vizualizatsiya qilishni ta'minlaydi (3-rasm).

Ushbu integratsiyalashgan yondashuv monitoring natijalarining aniqligi va samaradorligini oshirib, yer yuzasida sodir bo'ladigan deformatsion jarayonlarning har tomonlama tizimli tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, neft va gaz konlaridagi deformatsiyalarni aniqlash natijalaridagi dispersiyani kamaytirishga, qayta ishlangan eksperimental natijalar ishonchliligini oshirishga hamda mutanosib ravishda noaniqlikni kamaytirishga erishildi.



**3-rasm. Yer yuzasida sodir bo‘ladigan deformatsion o‘zgarishlarni monitoring qilishning takomillashtirilgan usuli**

Dissertatsiyaning “**Geoinnovatsion texnologiyalar asosida Qandim gaz koni hududida yer yuzasidagi deformatsion o‘zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish**” deb nomlangan uchunchi bobida masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalangan holda hududning vertikal deformatsion jarayonlari tahlil qilish, InSAR texnologiyasi asosida yer yuzasi deformatsiyalarini aniqlash uchun raqamli relyef modellarini (DEM) yaratish va ularning aniqligini baholash, masofadan zondlash ma’lumotlari yordamida Qandim gaz koni hududida kuzatilayotgan deformatsion jarayonlarni aniqlash va monitoring qilish usulini takomillashtirish ishlari amalga oshirilgan.

InSAR texnologiyasining ishlash prinsipi shundan iboratki, sun’iy yo‘ldosh bir xil hududni turli vaqtlarda bir necha marta radar nurlari yordamida skanerlaydi. Radar nurlari yer yuzasiga tushib, qaytgan signal qayd etiladi. Bir nechta kuzatuv natijasida hosil bo‘lgan fazaviy farqlar interferogramma yordamida o‘lchanadi. Ushbu fazaviy farqlar yer yuzasidagi kichik deformatsiyalarning natijasidir.

Tadqiqot doirasida Sentinel-1 SAR tasvirlarining ko‘p davrli tahlili InSAR texnologiyasi orqali Qandim gaz koni hududida yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni aniqlash maqsadida amalga oshirildi.


Mazkur texnologiya deformatsion jarayonlarni aniqlash, baholash, kartalash, tahlil qilish va monitoring qilishning barcha asosiy bosqichlarini qamrab oladi.

Ma’lumotlarni tanlash jarayonida hududning qamrov doirasi belgilandi hamda VV+VH qutblanish tizimi tanlandi. Ushbu tanlov Sentinel-1 sun’iy yo‘ldoshining C-diapazonida ishlashi va ikki xil qutblanish rejimida ma’lumot to‘plash imkoniyatiga ega ekanligi bilan bog‘liqligiga asoslanildi. Ikki qutblanish tizimidan foydalanish turli yuzaga xos xususiyatlarni yaxshiroq ajratib olishga yordam berdi va yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni aniq kuzatish imkoni yaratildi.

Ma'lumotlarni olish va qayta ishlash hamda natijalar aniqligini yuqori darajada ta'minlash maqsadida SNAP dasturi yordamida deformatsiyalarni aniqlash metodikasi ishlab chiqildi (4-rasm).

Ushbu metodika tasvirlarni oldindan qayta ishlash, xatoliklarni tuzatish, interferogrammalarni hosil qilib va RRMLarni yaratish bosqichlarini o'z ichiga oladi, bu esa tadqiq etilayotgan gaz koni hududidagi deformatsion jarayonlarni ishonchli va miqdoriy aniqlashni ta'minlaydi.

Geometrik kalibrlash natijasida yer yuzidagi obyektlarni aniq joylashtirish va tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Radiometrik kalibrlash tasvirlarning radiometrik xususiyatlarini aniqlash va standartlashtirishga yordam beradi. Bu jarayon orqali tasvirlarda aks etgan elektromagnit to'lqinlarning qayd etilgan intensivligi aniq va standart o'lchov birliklarida ko'rsatiladi. Natijada, tasvirlarning nisbiy va absolyut qiymatlari yanada ishonchli bo'ladi.



**4-rasm. Sentinel-1 ma'lumotlari asosida InSAR texnologiyasidan foydalanib yer yuzasining deformatsiyasini kartalash algoritmi**


Fazaviy ma'lumotlarning sifatini oshirish maqsadida filtrlash (denoising) usulli qo'llanildi. Xususan, to'lqinli (wavelet) texnika ma'lumotlarni chastota komponentlariga ajratish orqali shovqinni kamaytirib, asosiy fazaviy

xususiyatlarning saqlanishini ta'minlaydi. Ikki tomonlama filtrlash spekl-shovqinni kamaytirishda fazoviy o'xshashliklarni hisobga olgan holda ma'lumotlarning muhim belgilarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Mahalliy bo'lmagan o'rtacha (Non-local Means, NLM) filtri esa tasvirdagi kamroq shovqinli qismlarga asoslanib, shovqinni filtrlash va fazoviy izchillikni ta'minlash imkonini beradi.

Fazani ochish (unwrapping) texnikasi esa faza qiymatlarini qayta tiklashda va faza farqlarini izchil saqlashda muhim rol o'ynaydi, bu esa InSAR ma'lumotlarining fazaviy qamrovini kengaytiradi. Shu usullar yordamida InSAR ma'lumotlaridan to'g'ri va aniq natijalar olishga erishiladi.

Integratsiyalashgan Sentinel-1 + InSAR + SNAP + ArcGIS metodikasini qo'llash yer yuzasining vertikal deformatsiyalarini yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi - qisqa muddatli kuzatuvlarda  $\pm 1-5$  mm, uzoq muddatli davrlarda  $\pm 1-2$  sm. Hisob-kitob aniqligi bir qator omillarga xususan, atmosfera shovqinlari, relyef burchagi, o'simlik qoplami zichligi va xususiyatlari, boshlang'ich sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarining sifati hamda interferometrik ishlov berish parametrlariga bog'liq. InSAR texnologiyasi yordamida deformatsion jarayonlar kartalarini 10–30 m fazoviy aniqlikdan 2–5 m gacha oshirish mumkin bo'lib, bu 1:10 000 – 1:25 000 bo'lgan yirik masshtabli kartalarni hosil qilishga imkon beradi.

Tadqiqot davomida Qandim gaz koni poligoni hududida jami joylashgan 24 ta hamda geodinamik hudud ta'siridan tashqarida bo'lgan jami 20 ta geodezik punktlardan nazorat nuqtalari sifatida foydalanildi (5-rasm).



**5-rasm. Qandim gaz koni hududi va atrofidagi geodezik punktlar**

Baholashning yuqori aniqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida tezkor geodezik kuzatishlar va masofadan zondlash texnologiyalarining integratsiyasiga asoslangan ma'lumot yig'ish usuli qo'llanildi. Mazkur yondashuv tadqiqot obyektlarini kompleks tahlil qilish va natijalarning ishonchliligini kafolatlash imkonini berdi.

Vertikal aniqlik vertikal o'rta kvadratik xatolik (RMSE) yordamida hisoblanadi. Ushbu matematik formula 1970 - yillarning oxiridan keng qo'llaniladi. RMSE DEM balandliklarining qiymatlari va etalon GPS o'lchovlari qiymatlari orasidagi farqni o'lchaydi. Ushbu nuqtalar orasidagi farqlari "iskajeniye" deb ham ataladi va RMSE esa ularni bitta umumiy aniqlik ko'rsatkichi sifatida ifodalaydi.

RMSE formulasi quyidaga ko'rinishda bo'ladi:

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n e_{vi}^2} \quad (1)$$

Bundan,

$$e_{vi}^2 = v_{ri} - e_{mi} \quad (2)$$

Bu yerda,

*RMSE*- o'rta kvadratik xatolik;

$e_{vi}^2$ - *i* nuqtadagi DEM balandlik bilan nazorat nuqtalar farqi;

$v_{ri}$ - DEMdagi *i* nuqta balandligi;

$e_{mi}$ - *i* nazorat nuqtasi balandligi

*n*- nazorat nuqtalar soni

## 1 -jadval

### Yaratigan DEMga oid statistik ma'lumotlar


Model	Min, m	Max, m	O'rta, m	RMSE	GNSS va DEM korrelyasiya tenglamasi	Korrelyasiya koeffisienti R
GNSS	147,383	170,872	157,981	0,003	$y = (15,5008) + (0,89437) * x$	0,95
Sentinel-1 DEM	147,376	170,875	157,977			

Yuqoridagi hisoblashlarga asoslanib, GNSS va Sentinel-1 DEM modellarining o'rtacha balandlik qiymatlari juda yaqin aniqlandi, bu esa ikki model orasidagi farq minimal ekanligini ko'rsatadi. GNSS modeli uchun o'rtacha balandlik qiymati 157,981 m, Sentinel-1 DEM modelida esa 157,977 m bo'lib, bu farq faqat 0.004 m ni tashkil qiladi. Ushbu farq juda kichik bo'lib, Sentinel-1 DEMning yuqori aniqlikka ega ekanligini bildiradi.

GNSS modelining RMSE qiymati 0,003 m bo'lib, bu o'lchovlarning o'rtacha xatolik darajasini bildirib, modelning aniqligi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Sentinel-1 DEM modelining RMSE o'rtacha balandlik qiymatining GNSS ga juda yaqinligi, uning ham ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

GNSS va DEM modellarining orasidagi korrelyasiya tenglamasi  $y = (15,5008) + (0,894374) * x$  va korrelyasiya koeffisienti  $R = 0,95$  bo'lib, bu juda yuqori bog'liqlikni bildirgani (6-rasm). Demak, GNSS va Sentinel-1 DEM orasidagi


o‘lchashlar orasidagi munosabatlar juda yaxshi moslashadi va o‘zaro ishonchli ekanligini ko‘rsatadi.



### 6-rasm. GNSS va DEM modellarining orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik


SNAP dasturida yaratilgan raqamli relyef modellar (DEM) ArcGIS muhitiga import qilindi va Clip Raster algoritmi yordamida Qandim gaz koni hududi alohida ajratildi. Shunga o‘xshash amallar 2017–2023 yillar davomida olingan boshqa RRMlar uchun ham bajarildi. ArcGISdagi Raster Calculator algoritmi yordamida relyefning yillik fazoviy o‘zgarishlari tahlil qilindi. Deformatsion jarayonlarni uzluksiz monitoring qilishni tashkil etish uchun ModelBuilder muhiti qo‘llanilib, ma’lumotlarni qayta ishlash va hisob-kitoblarni avtomatlashtirish ta’minlandi.

Tadqiq etilayotgan hududda geodinamik faollikni baholash maqsadida 2017–2023 yillar davomida yaratilgan jami 14 ta RRM (DEM) ishlatildi, ular yarim yillik interval bilan tuzilgan (7–8-rasm).



7-rasm .Qandim gaz koni hududining 2017 yildan 2019 yilgacha bo‘lgan yarim yillik DEM tasvirlari

Tuzilgan kartalarda qoʻllanilgan rangli gradatsiya balandlik qiymatlarining farqlanishini aks ettiradi: qizil va toʻq sariq ranglar yer yuzasining choʻkish holatini, yashil hamda och sariq ranglar esa nisbatan barqaror yoki koʻtarilgan zonalarni koʻrsatadi. DEM tahlillari natijasida aniqlangan balandlik qiymatlari -1,527 dan +1,567 metr gacha oʻzgarib, bu holat choʻkish jarayonlari bilan bir qatorda yer yuzasining ayrim qismlarida koʻtarilish tendensiyalarining ham mavjudligini isbotlaydi. InSAR texnologiyasi olingan kosmo surat maʼlumotlari aniqligi bir pikselda 30×30m boʻlib, bunda masshtab aniqligi boʻyicha 1:300000 ga tengdir.




**8-rasm .Qandim gaz koni hududining 2020 yildan 2023 yilgacha boʻlgan yarim yillik DEM tasvirlari**

Tadqiqot davomida foydalanilgan InSAR texnologiyasi asosida olingan tasvir maʼlumotlari har bir tasvir uchun sanalar, kontur ramkasi, orbita yoʻnalishi, polarizatsiya rejimi, model va tushish yoʻlagi kabi muhim parametrlariga asoslanildi. Bu parametrlar InSAR tasvirlarini tahlil qilishda yer yuzasidagi deformatsiyalarni aniqlash va monitoring qilishda foydalanildi.

Orbita yoʻnalishi (ascending) tasvirlarni yuqoridan pastga qarab olishni anglatib, yer yuzasidagi oʻzgarishlarni aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Vertikal-vertikal (VV) polarizatsiya rejimi deformatsiyalar va harakatlarni yuqori aniqlikda aniqlashga yordam beradi. Model parametri (IW) esa tasvirlarning qamrov hududini koʻrsatadi

Masofadan zondlash, xususan, InSAR texnologiyasining asosiy afzalligi katta hududlarni qisqa vaqtda, jismoniy mavjud boʻlish talab qilinmasdan qamrab olish imkoniyatidir. Bu 1:300000 deformatsion kartalar yaratishda dala oʻlchash ishlarini arzonlashtirib, maʼlumotlarni tez toʻplash va tadqiq qilish imkonini beradi. Shuningdek, ochiq sunʼiy yoʻldosh maʼlumotlari moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi, GAT tizimlari bilan integratsiya esa kompleks tahlilni taʼminlaydi. Biroq, usulning baʼzi cheklolari mavjud boʻlib, ular sunʼiy yoʻldosh maʼlumotlarining mavjudligiga va tashqi omillar, masalan, ob-havo sharoitlari va oʻsimliklar qoplaminig taʼsiriga bogʻliqdir.

Qandim gaz koni hududidagi maydonning yer yuzasidagi uchrayotgan deformatsion jarayonlarning o‘rtacha- yillik monitoring kartasi yaratildi (9-rasm).



**9-rasm. Qandim Gaz koni hududidagi maydonning yer yuzasidagi o‘rtacha-yillik deformatsion jarayonlar kartasi**

Tadqiqot obyekti hududida o‘simliklar qoplamasining minimal bo‘lishi tufayli, masofadan zondlash usuli, xususan InSAR, deformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda yuqori aniqlikni ta‘minlaydi. Kam o‘simlik qoplamasi vegetatsiya shovqinining interferometrik ma‘lumotlarga ta‘sirini kamaytiradi, bu esa o‘lchovlar aniqligi va natijalar ishonchligini oshiradi. Tadqiqot davomida sun‘iy yo‘ldosh texnologiyalaridan tabiiy va sun‘iy obyektlarning holatini aniq va tezkor monitoring qilishda foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida masofadan zondlash usuli orqali monitoring qilish usullarining hamda an‘anaviy geodezik usullarning afzalliklari va cheklolari o‘rganildi.

Olib borilgan tadqiqotlar InSAR texnologiyasining yer yuzasida sodir bo‘ladigan vertikal deformatsion jarayonlarni aniqlash va monitoring qilishda samaradorligini oshishi tasdiqladi. Sentinel-1 ma‘lumotlari SNAP muhitida 2×2 m piksel o‘lchamida qayta ishlanib, ArcGIS tizimiga integratsiya qilindi va deformatsion karta yaratildi. Karta WGS84 koordinata tizimida (UTM proyeksiyasi) ishlandi va etalon geodezik nuqtalarga bog‘lash orqali tekshirildi. DEMning aniqligi RMSE orqali baholangan.

## XULOSA

Geoinnovatsion texnologiyalar asosida yer yuzasidagi deformatsion o‘zgarishlarni monitoring qilish usulini takomillashtirish (Buxoro viloyati Qandim gaz koni misolida) mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Olib borilgan tadqiqotlar asosida yer yuzasidagi geodinamik jarayonlarni aniqlash va monitoring qilish uchun geodezik o'lchashlar (GNSS, yuqori aniqlikdagi nivelirlash, taxeometrik s'yomkalar), masofadan zondlash (InSAR) va GAT (ArcGIS) integratsiyasiga asoslangan, lokal va keng hududlarda deformatsiyalarni yuqori aniqlikda aniqlash, fazoviy-vaqt tahlilini amalga oshirish hamda natijalarni vizuallashtirish imkonini beradigan takomillashtirilgan usul ishlab chiqildi.

2. Tadqiqot davomida yer yuzasining vertikal deformatsiyalarini yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini beradigan ( qisqa muddatli kuzatuvlarda  $\pm 1-5$  mm, uzoq muddatli davrlarda  $\pm 1-2$  sm), Sentinel-1 + InSAR + SNAP + ArcGIS metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika yordamida keng maydonlarni geodezik dala o'lchash ishlarini o'tkazmasdan monitoring qilish, hamda monitoring xarajatlarini 30–40% ga kamaytirish imkoni borligi aniqlandi.

3. InSAR texnologiyasi yordamida deformatsion jarayonlarning fazoviy aniqligi 2–5 m gacha oshirilishi mumkinligi, bu 1:10 000–1:25 000 masshtabdagi yirik kartalarni yaratishga imkon berishi aniqlandi. Shu bilan birga hisob-kitoblar aniqligi atmosfera shovqinlari, relyef burchagi, o'simlik qoplami zichligi va xususiyatlari, boshlang'ich sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarining sifati hamda interferometrik ishlov berish parametrlariga bog'liqligi o'z isbotini topdi.

4. Sentinel-1 ma'lumotlari asosida InSAR texnologiyasi yordamida yer yuzasidagi deformatsiyalarni aniqlashda eng yuqori aniqlik vegetatsiya qoplami kam bo'lgan hududlarda va ochiq joylarda erishilishi aniqlandi.

5. 2017-yil iyunidan 2023-yil dekabrigha qadar Qandim gaz koni hududida geodinamik faolligni baholash maqsadida 16 ta DEMlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, markaziy texnogen faol hududlarda o'rtacha yillik vertikal deformatsiya  $-10$  mm/yarim yil (cho'kish), chekka hududlarda esa vertikal deformatsiya  $\pm 50$  mm doirasida cheklanganligi aniqlandi. Mavsumiy o'zgarishlar  $\pm 10-20$  mm ni tashkil qilib, hududdagi geodinamik jarayonlarning barqaror va nazorat ostida ekanligi aniqlandi.

6. Yaratilgan RRMLarning aniqligi Davlat geodezik tarmog'i ma'lumotlari asosida baholandi. GNSS va Sentinel-1 DEM modellarining o'rtacha balandlik qiymatlari juda yaqin (GNSS – 157,981 m, Sentinel-1 DEM – 157,977 m; farq – 0,004 m), bu Sentinel-1 DEMning yuqori aniqligini tasdiqlaydi. GNSS modelining RMSE qiymati 0,003 m bo'lib, Sentinel-1 DEMning RMSE bilan yaqinligi uning ham ishonchligi baholandi.

7. Murakkab algoritmlar va jarayonlarni yaratishda ModelBuilderdan foydalangan holda Qandim gaz koni hududida yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarning o'rtacha- yillik monitoring kartasi ishlab chiqildi.

8. Tadqiqot natijalari Sentinel-1 va InSAR texnologiyalari vertikal deformatsiyalarni aniqlashda samarali ekanligini ko'rsatdi, 100–5000 km<sup>2</sup> gacha bo'lgan hududni qamrab olish imkoniga egadir. Ma'lumotlarni tez va xavfsiz yig'ish imkoniyati, shuningdek, ochiq sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarining mavjudligi monitoring samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv boshqa gaz konlari hududlarida geodinamik jarayonlarni nazorat qilish uchun ham qo'llanilishi mumkinligi o'z isbotini topdi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.26/26.01.2023.Т.109.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ АРХИТЕКТУРНО-  
СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АРХИТЕКТУРНО-  
СТРОИТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**МУЛЛОДЖАНОВА ГУЛНОЗА МУХИДДИНОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА МОНИТОРИНГА  
ДЕФОРМАЦИОННЫХ ИЗМЕНЕНИЙ НА ЗЕМНОЙ ПОВЕРХНОСТИ  
НА ОСНОВЕ ГЕОИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
(На примере газового месторождения Кандым Бухарской области)**

**11.00.07 – Геоинформатика**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан под номером B2024.4PhDT5191.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.samdaqu.uz](http://www.samdaqu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Zionet» (<http://www.zionet.uz>).

Научный руководитель:	Суёнов Абдусали Саматович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Реймов Полат Расбергенович доктор географических наук (DSc), профессор Маматкулов Зоҳид Жонқобилович доктор философии технических наук (PhD), доцент
Ведущая организация:	Бухарский государственный технический университет

Защита диссертации состоится "24" октября 2025 года в 15<sup>00</sup> часов на заседании разового научного совета при Научном совете PhD 26/26.01.2023.Т.109.04 Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете (Адрес: 140147, г. Самарканд, улица Лолазор, 70. Тел. (998-66) 237-15-93, Факс (99866) 237-26-30, E-mail: [samdaqu@edu.uz](mailto:samdaqu@edu.uz), [samdaqum@samdaqi.edu.uz](mailto:samdaqum@samdaqi.edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета имени Мирзо Улугбека (зарегистрирована за номером № 275) Адрес: 140147, г. Самарканд, улица Лолазор, 70. Телефон: (998-66) 237-15-93.

Автореферат диссертации разослан "10" 10 2025 года,  
(реестр протокола рассылки "03" 10.10 2025 года)



**Д.Ш. Фазилова**  
Заместитель председателя разового Научного совета по присуждению ученой степени, д.ф-м.н., профессор

**В.Р. Ниязов**  
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученой степени, доктор философии по техническим наукам (PhD)

**С.Б. Аббасов**  
Председатель научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученой степени, д.г.н., профессор

## ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире и в различных его регионах особое значение приобретает развитие исследований, направленных на анализ и изучение деформационных изменений земной поверхности, возникающих под воздействием техногенных и природных процессов, с применением технологий дистанционного зондирования (ДЗЗ) и геоинформационных систем (ГИС). В настоящее время в развитых странах мира одной из актуальных задач является автоматизация мониторинга деформационных процессов на поверхности земли, минимизация человеческого фактора и широкое внедрение инновационных решений. В связи с этим в Сендайской рамочной программе действий по снижению риска бедствий на 2015–2030 годы (Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015–2030)<sup>3</sup> использование технологий ДЗЗ определяется в качестве ведущих направлений при оценке последствий чрезвычайных ситуаций и их управлении. Также особое внимание уделяется таким важным вопросам как разработка эффективных систем наблюдения, обеспечивающих возможность постоянного мониторинга деформационных процессов на поверхности земли, их выявления и анализа с применением геоинформационных методов.

В мире приоритетное значение придается научно-исследовательским работам, направленным на совершенствование методов мониторинга деформационных изменений земной поверхности на основе интеграции данных ДЗЗ с технологиями ГИС. В связи с этим одной из важнейших задач является повышение эффективности мониторинга деформационных изменений земной поверхности в районах газовых месторождений посредством оценки точности цифровых моделей рельефа (ЦМР, DEM), созданных с применением технологии InSAR (Interferometric Synthetic Aperture Radar), а также разработки цифровых карт на основе современных геоинформационных технологий.

В нашей Республике реализуются комплексные меры, направленные на развитие систем мониторинга сейсмогеодинамических процессов на нефтегазовых месторождениях, включая внедрение геоинновационных технологий для наблюдения деформационных изменений земной поверхности, совершенствование методик их анализа и повышение эффективности управления результатами геодинамических исследований. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены важные задачи по «...внедрению современных технологий дистанционного зондирования и восстановления посредством спутниковых технологий»<sup>4</sup>. В реализации данных задач, важное значение приобретает разработка методов использования технологий ДЗЗ и ГИС систем, проведение

---

<sup>3</sup> [https://www.preventionweb.net/files/43291\\_sendaiframeworkfordrren.pdf](https://www.preventionweb.net/files/43291_sendaiframeworkfordrren.pdf)

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

научных исследований по сохранению территорий, подверженных техногенным и природным воздействиям, а также по рациональному использованию природных ресурсов.

